

1 HUDUDDAN 3 XABAR



1 HUDUDDAN 3 XABAR

Xabaringiz bor, Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi qabristonda Tul va Sohibkor aholisi tashabbusi bilan obodonchilik ishlari tashkil etilib, bu yerda hashar yo'li bilan yangi shiyponlar qurilishi yo'lga qo'yilgan. Anyi kunda ushbu shiyponning birinchi g'ishti qo'yilib, qurilish ishlari davom etmoqda.

Mahalla hududida "mahallabay" tizimi asosida aholi muammolari o'rganilmoqda. Bu ishlarda mahallada faoliyat olib borayotgan profilaktika nozirlarining mahalla mutasaddiylari bilan mustahkam hamkorligi yo'lga qo'yilgan.

Bahor kelishi bilan hududda obodonlashtirish ishlari boshlanishi barobarida xalqimizning urf-odatları, qadimiy an'analari asosida ham ishlar tashkil etilgan. Bir joyda jam bo'lgan mahalla ayollari bahor taomi - sumalak pishirishdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-28 20:28:15